



UDK:15: 371.044.4(045)

Sayyora ERGASHEVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ASSESSING THE PROFESSIONAL ORIENTATION OF THE HEAD OF AN EDUCATIONAL INSTITUTION

Annotation

The article examines the psychological features of assessing the orientation of the head of a comprehensive school towards professional activity. The theoretical and practical aspects of this problem are described, as well as the scientific research carried out by scientists in our country in this direction. The article also provides detailed information about the essence of the activities of educational institution leaders today, and the features of its effective organization.

Key words: Continuing education, school, leader, team, management, activity, professionalism, efficiency, competence, mental activity, interest, emotional state, stress, comfort.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ РУКОВОДИТЕЛЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются психологические особенности оценки ориентации руководителя общеобразовательной школы на профессиональную деятельность. Рассказывается о теоретических и практических аспектах данной проблемы, а также о научных исследованиях, проводимых учеными нашей страны в этом направлении. Также в статье представлена подробная информация о сущности деятельности руководителей образовательного учреждения сегодня, особенностях ее эффективной организации.

Ключевые слова: Непрерывное образование, школа, лидер, коллектив, управление, активность, профессионализм, работоспособность, компетентность, умственная деятельность, интерес, эмоциональное состояние, стресс, комфорт.

TA'LIM MUASSASASI RAHBARINING KASBIY FAOLIYATGA YO'NALGANLIGINI BAHOLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbarining kasbiy faoliyatga yo'nalganligini baholashning psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Shuningdek, maqolada ta'lim muassasasi rahbarlarining bugungi kundagi faoliyati mazmun-mohiyati, uni samarali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Uzlüksiz ta'lim, maktab, rahbar, jamoa, boshqaruv, faoliyat, professionalizm, samaradorlik, kompetensiya, psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish, qulaylik.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalarida bo'lgani singari uzluksiz ta'lim tizimida ham misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bug'uni bo'lib, bugungi kunda uning asosiy vazifasi mamlakatimiz kelajagi bo'lgan o'quvchi-yoshlarni amaldagi davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash, shaxsni ta'lim olishga doir konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishdan iborat bo'lmoqda. Maktabning o'quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish esa maktab direktorining lavozim vazifasi hisoblanib, u vakolati doirasida maktabdagi ta'lim-tarbiya ishini tashkillashtirish, maktabning ma'muriy-xo'jalik, moliyaviy ishini ta'minlash, maktabda xavfsizlik texnikasi meyorlari va qoidalariga rioya qilish tartibini yaratish, ularning ishini nazorat qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Modomiki shunday ekan, o'zini yetakchi deb hisoblaydigan har bir maktab rahbari jamoani samarali boshqarish uchun maxsus bilim, kasbiy tayyorgarlik, hayotiy tajriba va malakalarga ega bo'lishi, maktabning moliyaviy va iqtisodiy masalalarini to'g'ri va oqilona yecha oladigan, favqulodda yuz bergan mummlarni tezkorlik bilan hal qila oladigan, tobe kishilarni psixologik jihatdan ajrata oladigan, ularning jinsi, yoshi, aqli va jismoniy

imkoniyatlariga qarab ishni taqsim qila oladigan darajada bo'lishi kerak.

Bugungi kunda taraqqiyot zamonaviy rahbardan davr bilan baravar qadam tashlash, yangiliklardan cho'chimaslik, yangilik va axborotlarni tez qabul qilish, qayta ishlash va undan o'z o'rnida foydalanish, yangi g'oyalar yaratish va ularni moddiy mahsulga aylantirish uchun kurashish, chet el ilg'or tajribalari va innovatsion texnologiyalarni o'z pedagogik jamoasida tatbiq etish kabi vazifalarni bajarishni talab qilmoqda. Ta'lim muassasasi rahbari yangi va zamonaviy, dunyoviy bilim va g'oyalarga tashnalikni namoyon qilib, hayotiy muammolarga ijodiy yondashishga harakat qilishi, myayyan loyihalar ishlab chiqishi, yangilikni sinab ko'rishi va uning samaradorligini sarhisob qilishi, o'zi va qo'l ostidagi xodimlarning mahoratini uzluksiz oshirishga intilishi maqsadga muvofiqdir. Bu vazifalarni bajarish esa har bir ta'lim muassasasi rahbaridan professionalizm, o'z sohasini yuqori saviyada bilish, tashabbuskorlik, uddaburonlik, izlanuvchanlik, yangilikka intilish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishlikni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda mamlakat hamda xorijiy tadqiqotchi-olimlar tomonidan

uzluksiz ta'lim tizimining boshqaruv samaradorligini oshirish hamda boshqaruv kadrlar kompetentligini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, mamlakatimiz olimlaridan B.A.Abdullayev, Sh.X.Abdullayeva, D.S.Abdullajanova, K.S.Aliyeva, N.Boymurodov, E.S.Yoziyev, X.A.Kadirova, N.T.Kariyeva, V.M.Karimova, I.I.Maxmudov, A.M.Maxmudov, D.G.Muxamedova, A.S.Nazarov, N.A.Ruziqulov, E.N.Sattarov, O.R.Shamiyeva, A.M. Shonazarov, O.E. Hayitov, E.G'.G'oziyev va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot etilgan bo'lib, ularda yuqori malakali rahbar kadrlarni tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lg'usi rahbarlarni professional boshqaruv faoliyatiga tayyorlash, saralash, tanlash tadqiqot ishining maqsadi sifatida talqin qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan T.Y.Bazarov, D.Y.Varnavskiy, B.M.Genkin, S.I.Dubov, N.A.Yerovina, B.A.Jiganov, E.V.Ivanov, F.S.Ismagilova, S.S.Mixeyev, A.V.Nekrasov, A.P.Oubxov, O.I.Orlova, V.P.Ponamarev, N.V.Samoukina, YE.A.Shagayevalar tomonidan turli soha boshqaruv tizimini optimallashtirish, rahbar kadrlar boshqaruv kompetensiyalari va kompetentligi shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiqot qilingan.

O.E.Hayitov tomonidan "Oliy ta'lim myassasasi o'rtacha bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish" mavzusida bajarilgan doktorlik dissertatsiyasi oliy ta'lim myassasasi o'rtacha bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish jarayonidagi kompetensiyalar shakllanishining individual-psixologik, yoshga, jinsga, kasbga oid ijtimoiy-psixologik fazilatlar tizimini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida kompetensiya, kompetentlik masalalariga asosiy urg'u berilgan, turlicha yondashuvlar tahliliga asoslanilgan holda kompetentlik darajalari ko'rsatilgan va kompetentlikni tashkil etuvchi komponentlar (bilimlar majmui, ko'nikmalar, muloqot meyorlari) rahbardagi boshqaruv, shaxsiy va funksional kompetensiyalar rivojlanishining asosi ekanligi to'g'risida xulosaga kelingan. Ilmiy tadqiqot ishida rahbarning psixologik kompetentligini modellashtirish imkoniyatlari empirik jihatdan o'rganilgan. Myallif tomonidan berilgan o'rtacha bo'g'in rahbarida psixologik kompetentlikni rivojlantirishning kompleks modelida ustivor kompetensiyalar sifatida 38 ta kompetensiya belgilangan [5].

A.M.Maxmudov tomonidan "Yosh rahbarlarda boshqaruv ko'nikmalari shakllanib borishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishida turli sohalarida boshqaruv faoliyatini olib borayotgan yosh rahbarlarda boshqaruv ko'nikmalari rivojlanishi va shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning

1-jadval

"Psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish va qulaylikni diagnostikalash" metodikasi natijalarining umumiy tavsifi (n=543)

№	Psixik holat shkalalari	Min.	Maks.	O'rtacha	Standart og'ish
1	Psixik faollik	3	21	10,89	3,56
2	Qiziqish	3	21	9,87	3,95
3	Hissiy marom	3	21	12,13	3,21
4	Zo'riqish	3	21	11,54	3,36
5	Qulaylik	3	21	10,99	3,50

Bu aynan UO'TM laridagi har uchchala toifa boshqaruv kadrlari faoliyatida psixik holatlar ichida "zo'riqish", "qulaylik", "qiziqish", "hissiy marom", "psixik faollik" o'rtacha darajada ekanligini bildiradi.

(Mann-Uittni – U mezoni)

№	Psixik holat shkalalari	O'rtacha ranglar		U	p
		Ayol boshqaruv kadrlar (n=300)	Erkak boshqaruv kadrlar (n=243)		
1	Psixik faollik	988,6	663,5	168893	0,021*
2	Qiziqish	919,0	697,7	161806,5	0,000**
3	Hissiy marom	1024,2	780,3	150081	0,002**
4	Zo'riqish	980,6	662,3	169985,8	0,037*

samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqotda yosh rahbarlarda boshqaruv ko'nikmalari shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ushbu ko'nikmalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar tahlil etilgan. Boshqaruv ko'nikmalarining rivojlanish darajasini aniqlash va o'rganishda yosh rahbarlarning o'zini-o'zi anglashi ularning keyingi rivojlanishi uchun yetakchi stimullar bo'lishi to'g'risidagi yangi yondashuv respublikada rahbarlikni o'rganish bo'yicha psixologik tadqiqotlar amaliyotiga olib kirilganligi alohida e'tiborga loyiq. Mazkur tadqiqot liderlik kompetensiyasining rahbarlik faoliyatida yetakchiligi e'tirof etilgan holda amalga oshirilganligi va faoliyat ko'rsatayotgan yosh rahbarlarda bu kompetensiyalarning ifodalanganligi darajalarining aniqlanganligi ushbu tadqiqot ishining kadrlar zaxirasini shakllantirish sohasiga tatbiq etish imkoniyatlarini oshiradi [4].

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlaridan biroz farq qilib, umumiy o'rtacha ta'lim muassasalari (UO'TM) boshqaruv kadrlaridagi ustivor psixologik holat va subyektiv nazoratning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Biz tajriba-sinov ishlarida UO'TM lari boshqaruv kadrlaridagi ustivor psixologik holat va subyektiv nazoratning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlash maqsadida, dastavval "Psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish va qulaylikni diagnostikalash" metodikasi Kurganskiu-Nemchin) yordamida beshta shkala bo'yicha ularning emotsional holatini o'rgandik.

Izlanishlarimizga ko'ra, olingan birlamchi empirik natijalar tahlili, bizga, minimal va maksimal ko'rsatkichlar oralig'ida meyorni aniqlash imkoniyatini berdi. Xususan, "psixik faollik" shkalasi bo'yicha respondentlarimiz ko'rsatkichi o'rtacha 10,89 ni tashkil qilib, holat "o'rtacha daraja" ekanligini bildiradi. Sababi, metodika natijalarini qayta ishlash yo'riqnomasiga ko'ra, respondentlar qancha katta ball olishsa shkala bo'yicha psixik holatning "eng past darajasi" kuzatiladi. Bizning tadqiqot ishimizda, "qiziqish" shkalasi bo'yicha 9,87; "hissiy marom" shkalasi bo'yicha 12,13; "zo'riqish" shkalasi bo'yicha 11,54; "qulaylik" shkalasi bo'yicha 10,99 ham natijalar "o'rtacha darajada" ekanligini namoyon qiladi. Sababi, metodika mualliflari tomonidan "o'rtacha daraja" uchun 9-15 ball oralig'ida meyor sifatida ko'rsatib o'tilgan. Nazarimizda, ushbu shkalalar bo'yicha natijalarga respondentlarning "yosh guruhi", "jins guruhi", "lavozimi toifasi", "boshqaruv darajasi" kabi ijtimoiy-psixologik omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Metodika yo'riqnomasiga ko'ra, "psixik holat"ning "eng yuqori darajasi" 3-8 ball oralig'i; "eng past darajasi" 16-21 ballni tashkil qiladi. Aniqlanilishicha, bizning tadqiqotimizda bu borada natijalar yo'riqnomadagidek "9-15 ball" oralig'ini, ya'ni 9,87-12,13 oralig'ida o'z ifodasini topgan (1-jadvalga qarang).

2-jadval

UO'TM lari boshqaruv kadrlarida psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish va qulaylik namoën bo'lishining taqqosiy ko'rsatkichlari

5	Qulaylik	1048,8	678,8	154107,5	0,000**
---	----------	--------	-------	----------	---------

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

UO'TM lardagi erkak va ayol boshqaruv kadrlarning "psixik faollik" ko'rsatkichlari solishtirilganda ayol respondentlarning natijalarida tafovutlar kuzatildi ($U=168893$; $p < 0,05$). Maktablarda ish hajmi va bosimining balandligi, doimiy ravishdagi aqliy faol harakat, bir muhitdan ikkinchi muhitga ko'chishdagi tezkor moslashuv, shuningdek, tig'iz ish rejimi kabi omillar ta'sirida boshqaruvdagi erkak kadrlarning psixik xususiyatlarida faollik "muqim" belgilardan biri bo'lib qolishiga olib kelgan. Erkak kadrlarda "psixik faollik" darajasi biron past bo'lishini ulardagi ish muhitidagi vazifalar taqsimotidan qoniqish, berilgan yuklamani bajarish bilan cheklanish ko'lamining siklik tarzidaligi bilan izohlashimiz mumkin.

"Psixik faollik"ni biz ongning optimal ravshanligi holati, shaxsning ongli faoliyat qobiliyatining maksimal darajada ishlashi deb ta'riflashimiz mumkin. Ongning optimal tashkil etilishi faoliyatning turli jihatlarining izchilligi, uning sharoitlariga diqqatning kuchayishi bilan ifodalanaadi. Psixik faoliyat kiruvchi ma'lumotlarning ahamiyatini doimiy ravishda tahlil qilish va ularga adekvat xatti-harakatlar reaksiyasini topishdan iborat. Psixik faoliyatning asosini belgilab beruvchi jihatlardan biri hushyorlik bo'lib, u shaxsning atrof-muhit bilan faol psixik o'zaro ta'siri holatini ifodalaydi.

"Qiziqish"lar darajasida ham tafovutlar qayd etilib ($U=161806,5$; $p < 0,01$), boshqaruv sohasida faoliyat olib boruvchi ayollarda o'z ustida doimiy ishlashni yuzaga keltiruvchi asosiy motivatsion birlik sifatida qiziqish namoyon bo'lishi aniqlandi. Natijalarga asoslanib, qiziquvchanlik darajasining domiy faollikda bo'lishi boshqaruvdagi kadrlarni faoliyat soharlarida ham, turmush tarzida ham yangiliklardan boxabar bo'lish, intellektual salohiyatini oshirib borish hamda ijtimoiy faol subyektlar sifatida ham intrapersonal munosabatlarda shaxslarning kechinmalarini anglash orqali ularga to'g'ri yondashuv ishlab chiqishga undar ekan. Erkaklarda ko'rsatkichlar tahliliga asoslanib, aytishimiz mumkinki, "qiziqish" u darajada yuqori emasligi ko'proq bioritmik o'zgarishlarga sekin reaksiya bildirishlari, daxldorlik hissinging faqatgina faoliyat jarayoniga yo'naltirilgani bilan ham tavsiflash lozim. "Qiziqish"ni noma'lum narsani bilish istagi bilan birga keladigan hissiyotlar va kognitiv jarayonlarning kombinatsiyasi sifatida tushuntirish mumkin. "Qiziqish" insonning barcha hayotiy davrlarida o'rganish va rivojlanish jarayonlari uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ham boshqaruv sohasidagi shaxslarning faollik manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

"Hissiy marom"ni emotsional barqarorlik, hissiy kayfiyat hamda tashqi muhitda bo'layotgan o'zgarishlarga tez moslashishga ko'mak beruvchi emotsional intellektning tarkibiy vositasi sifatida ta'riflashimiz mumkin. Natijalar tahlilidan kelib chiqqan holda ($U=150081$; $p < 0,01$), emotsional tonusning ayollarda baland bo'lishi ish jarayonidagi yuklamalar, shaxslar bilan kechadigan doimiy muloqot, o'zgalarni his qilish orqali ularni ta'sir o'tkazishning baland bo'lishi, shuningdek, ish samaradorligi ta'minlashga undovchi qo'zg'atuvchi emotsional kayfiyatning dinamik xarakterda namoyon bo'lishi sababli deb aytishimiz mumkin. Erkaklarda

esa, "hissiy marom" darajasidagi nisbiy tafovutlar ko'proq ularning ish samaradorligiga putur yetkazishi, hissiy charchoqni yengib o'tishda emotsional tajribalarning yetishmasligi kabi omillar bilan bog'lash maqsadga muvofiq sanaladi.

"Zo'riqish" ko'rsatkichidagi natijalar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, ayollarda ustun tafovutlar kuzatildi ($U=169985,8$; $p < 0,01$). Doimiy hissiy-ijtimoiy bosim ostidagi zo'riqishlar, tig'iz ish rejimi, javobgarlik hissinging yuqori bo'lishi, shuningdek, diqqat ko'lamini, uning bo'luvchanligining ekstremal holatlarga doimiy shay bo'lishi kabi omillar ta'sirida UO'TM larining 1-darajali boshqaruv lavozimlarda faoliyat yurituvchi ayollarda zo'riqish darajasi baland bo'ladi. Erkaklarda nisbatan pastroq ko'rsatkichlarni qayd etilishini esa, ularda zo'riqish kamroq degan xulosaga kelishga imkon bermaydi, aksincha, ulardagi zo'riqish ko'rinishlari intra, ya'ni ichki olamga yo'nalgan bo'lib, ko'proq ish faoliyati mobaynida yuzaga keluvchi bosimlarni "ichiga yutish" orqali "hazm qiladi", deb baholash mumkin.

"Qulaylik" ko'rsatkichida ham xuddi yuqoridagi shkalalarda bo'lgani kabi, ishonchli tafovutlar qayd etildi ($U=154107,5$; $p < 0,01$). Ayollarda o'z o'rnidan qoniqish hissi hosil qilish orqali o'zi uchun qulay muhit yaratish imkoniyatining mavjudligi ularda komfort hissinging baland bo'lishini ta'minlasa, erkaklarda esa, komfort bu yuklamalarni o'z vaqtida bajarib, ishdan "qutulish", o'zi uchun belgilangan doiradan tashqariga chiqmaslik kabi qarashlarning xulq-atvor patternlari kabi ko'rinishda qotib qolganligi bilan ham tavsiflanadi.

Aniqlanilishicha, ayollarda erkaklarga nisbatan hissiu holatlarni boshqarish erkaklarga nisbatan ko'proq tashqariga yunalgan bo'lib, o'zidan tashqari ko'proq atrofda qilargalarga g'amxo'rlik ko'proq kuzatilar yekan. Erkaklar ko'proq o'zligini anglash, iqtisodiy ta'minotchilik, nazoratchilik pozitsiyasida bo'lishga intilishni ustunligi kuzatilar yekan. Ayollarda emotsionalni bosiqlik bilan boshqarish erkaklarga nisbatan kuchli sezilar yekan. Erkaklarda "hissiy marom" ko'p hollarda komfort zonadan chiqqanda sezilishi kuchayar yekan.

Xulosa. Umuman olganda, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasasiga rahbarlik qilish o'ta murakkab jarayon bo'lib, u shaxsdan nafaqat oliy ma'lumotga ega bo'lishni, balki ta'lim muassasasini boshqarishga oid maxsus bilim, kasbiy tayyorgarlik, hayotiy tajriba va malakalarga ega bo'lishni hamda zamon bilan hamnafaslikni talab etadi. Bugungi taraqqiyot maktab rahbaridan, yuksak aql-farosat, katta kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni namoyon qilishini, o'z ustida tinmay ishlashni, kreativlik va ishbilarmonlik sifatlariga ega bo'lishni taqazo qiladi. Buning uchun rahbar jamoani mohirlik bilan boshqarish usullarini egallashi, zamonaviy boshqaruvning texnologiyalari ustida tinmay izlanishi, muayyan loyihalar va proyeksiyalarni ishlab chiqishi, fan-texnika yutuqlari va ish yuritishning zamonaviy usullarini chuqur o'rganishi, pedagogik jamoani boshqarishning ilg'or va yanada mukammal usullarini yaratish borasida faol ijodiy izlanishlar olib borishi, malakasini doimiy suratda oshirishi lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Yoziyev E.S. Boshqaruv psixologiyasi // O'quv qo'llanma. – Qarshi: "Fan va ta'lim", 2021. – 388 b.
2. Karimova V., va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. –T.: Fan va texnologiya. 2008 y. -208 b.
3. Mahmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. -T: YUNAKS-PRINT MCHJ, 2006.- 232 b.
4. Maxmudov A.M. Yosh rahbarlarda boshlang'ich boshqaruv ko'nikmalari shakllanib borishining ijtimoiu-psixologik xususiatlari (harbiu va harbiu bo'limganlar misolida): Psixol. fan. bo'u. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ua: 19.00.03. – T.: TDP, 2020. – 140 b.
5. Hayitov O.E. Oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixol. fan. dok-ri (DSc) ... dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: TDP, 2020. – 250 b.
6. G'oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. -T: O'zMU, 2001.- 144 b.